

XI B O B. OILAVIY MUNOSABATLARNI O'RGANISHGA OID PSIXODIAGNOSTIK TESTLAR

11.1. YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASHGA QARATILGAN TESTLAR

*Muhabbat degan narsa juda oz
kishiga nasib bo'lading'on bir duri
bebahodir.*

Abdulla Qodiriy

1 - t e s t. «Sevgi va yoqtirish mayli shkalasi» testi

Oila qurish motivlaridan biri sevgi-muhabbat hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarning qay darajada kechishi ko'pincha shu motivga bog'liq. Lekin har qanday inson o'z his-tuyg'ularining sevgi obyekti, ya'ni tanlagan kishisiga nisbatan qanday ekanligini bilib olishi kerak.

Quyida keltiriladigan test shaxsdagi his-tuyg'ularidan sevgi va yoqtirishning darajasini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun shu 14 ta tasdiqlarning ushbu javob variantlaridan birini belgilaysiz:

- a) ha, bu shunday;
- b) ehtimol shundaydir;
- d) u qadar bo'lmasa kerak;
- e) butunlay unday emas.

Bunda iloji boricha tez ishlashga harakat qiling.

Bu tasdiqlarning toq va juft o'rinda turganlarining ballarini summasini hisoblash orqali o'zingizdagi hissiyot turini aniqlashingiz mumkin. Buning uchun toq va juft tasdiqlar bo'yicha olgan ballaringizni hisoblab chiqing. Ya'ni toq sondagi tasdiqlar orqali sevgi darajasini, juft sondagi tasdiqlar esa yoqtirish (mayli) darajasini bildiradi.

Qaysi shkala bo'yicha ballaringizning ko'p ekanligi, sizning munosabatingizda shu his-tuyg'u turining ustunligini ko'rsatadi.

Muhabbat eng qadimiy va navqiron tushuncha. U shu kungacha qarigan emas, bundan keyin ham qarimaydi. U hamisha

T a s d i q l a r	a	b	d	e
1. Men unga mutlaqo hamma narsani ishonishim mumkin.	4	3	2	1
2. Birga bo'lgan vaqlarimizda bizning kayfiyatimiz doimo mos tushadi.	4	3	2	1
3. U faqat menikidir deb ayta olaman.	4	3	2	1
4. U juda aqlli kishi.	4	3	2	1
5. Uning uchun men mutlaqo hamma narsaga tayyorman.	4	3	2	1
6. Ko'pchilik hollarda, u odamlar bilan tanishgan vaqlarimizda ularga yoqa boshlaydi.	4	3	2	1
7. O'zimni noxush (yomon) his qilgan vaqlarimda faqat u bilan suhbatlashgim, hasratlashgim keladi.	4	3	2	1
8. Biz u bilan qalban o'xshashmiz deb o'ylayman.	4	3	2	1
9. Agar, usiz yashashga to'g'ri kelib qolsa, unda menga juda og'ir (qiyin) bo'lar edi.	4	3	2	1
10. Men unga o'xshagan bo'lishni xohlar edim.	4	3	2	1
11. Unga doimo yaxshi bo'lishi uchun men o'zimni javobgar deb his qilaman.	4	3	2	1
12. U menga nisbatan yaxshi munosabatda ekanligiga ishonchim komil.	4	3	2	1
13. Uning boshqalardan ko'ra, menga ko'proq ishonishini his qilish menga yoqadi.	4	3	2	1
14. U men bilgan qizlar (yigitlar) orasida eng jozibali (yoqimlidir).	4	3	2	1

oftob kabi qalbgga yaqin, ammo har bir zamon, har bir avlod va har bir qalb uning yanada yangi, mazmunli, ko'rkam va fayzli bo'lishiga o'z hissasini qo'shadi.

T. Qorayev

2 - t e s t. «Bu katta sevgimi yoki yengil-yelpi yoqtirishmi?» testi

Quyida beriladigan savolli vaziyatlarga mos kelgan javobni tanlasangiz, u holda sizdagi hislaringizning qanday ekanligini bilib olish imkoni tug'iladi. Javob namunasining o'zingizga ma'qulini tanlayotganingizda miyangizga birinchi bo'lib kelgan fikrni tanlash maqsadga muvofiq ekanligini unutmang.

1. Uchrashuvga keta turib, Siz:
 - a) o'zingiz yoqtirgan ko'ylagingizni kiyasiz;
 - b) u yoqtirgan ko'ylakni kiyasiz;
 - d) ko'ylaklaringiz orasida eng yangisini kiyasiz.
2. Siz sevgilingizning ota-onalariga ro'baro' kelib qolsangiz:
 - a) Siz bundan juda xijolat bo'lasiz;
 - b) bu Siz uchun yoqimli va qiziqarli;
 - d) ularga duch kelmasam bo'lardi, deb o'ylaysiz.
3. Agar Sizning sevgilingiz Sizga kitob taqdim etsa:
 - a) Siz boshqa kitobga almashtirishga tayyorsiz;
 - b) shunday kitobni orzu qilardim, deysiz;
 - d) bexosdan «Menda bu kitobdan bor!», — deysiz.
4. Agar u sizga qo'ng'iroq qilaman deb va'da bergan bo'lsa-da, lekin nechundir qilmasa:
 - a) Siz yig'laysiz;
 - b) kun bo'yi telefon oldida o'tirasiz;
 - d) dugonangiz (do'stingiz) bilan aylangani chiqib ketasiz.
5. Agar Siz uning onasiga yoqmasangiz, ya'ni uning onasi Sizni yoqtirmasa:
 - a) Siz uning onasi talablari bilan hisoblashasiz;
 - b) uning onasiga yoqish uchun astoydil harakat qilasiz (gul berasiz, yaxshi so'zlashasiz);
 - d) onasidan yoqtirmaslik sababini so'raysiz.
6. Agar Sizga u biror joyga borishni taklif etsa-yu siz uning moddiy ahvoli tang ekanligini bilsangiz, u holda Siz:
 - a) xarajatlarni birgalashib to'lashni taklif etasiz;
 - b) shunchaki sayr qilishni taklif etasiz;
 - d) biror-bir mavzuda suhbat uyushtirasiz (yangi filmlar, tomoshalar haqida).
7. Janjallashib qolsangiz, janjaldan keyin Siz o'zingizni aybdor ekanligingizni his qilsangiz ham, Siz:
 - a) uning qo'ng'iroq qilishini, u birinchi bo'lib kelishini kutasiz;

- b) undan siz kechirim so‘raysiz;
- d) o‘rtoqlaringizga (dugonangizga) bo‘lgan janjalni o‘zingizni aybdor ko‘rsatmay so‘zlab berasiz.
8. Agar sizning sevgilingiz sportni sevsa, Siz:
- a) u bilan musobaqalar tomosha qilgani borasiz;
- b) uning «xobbi»sini, qiziqishini ma’qullaysiz;
- d) uyda yolg‘iz qolishni afzal ko‘rasiz, gohida uning xob-bisi ustidan kulasiz.
9. Siz tasodifan ilgari yoqtirgan kishingiz bilan ko‘chada uchrashib qolsangiz, Siz:
- a) u bilan uchrashishdan voz kechasiz;
- b) unga, endi boshqa kishini sevishingizni aytasiz;
- d) o‘tgan damlaringizni eslab, u bilan uchrashuvga rozi bo‘lasiz.
10. Sevganingiz bilan uzoq ayriliqdan Siz:
- a) yolg‘izlikdan qiynalmaslik uchun, dugona yoki do‘st-laringiz bilan birga vaqt o‘tkazasiz;
- b) yolg‘izlikda o‘zingiz vaqt o‘tkazasiz va doimo (sev-ganingizga) maktublar yozasiz.
- d) undan oldingi yoqtirgan odamingiz bilan uchrashishga harakat qilasiz va unga o‘zingizni bildirasiz.

Test natijalarini baholash

1	a	b	d	1	a	b	d
1.	2	3	1	6.	2	3	1
2.	2	3	1	7.	2	3	1
3.	2	3	1	8.	2	3	1
4.	2	3	1	9.	2	3	1
5.	2	3	1	10.	2	3	1

Test natijalari tahlili

15 balldan kam: O'zingizni va uni aldashingiz behuda, siz uni sevmaysiz.

15—28 ball: Sizning o'ylashingizcha, Siz uni sevib qolgansiz, lekin buni aniq ishonch bilan aytish asosli emas.

28 balldan yuqori: Siz haqiqatan ham uni sevasiz.

Agar sevsang, muhabbatingga arziydiganni sev. Sevilgan odam Ptolomey yoki Aflotun darajasida bo'lishi shart emas, lekin oz bo'lsa-da, idrok egasi bo'lmog'i kerak.

«Qobusnoma»dan

3 - t e s t. «Siz uni qay darajada sevasiz?» testi

Quyidagi test orqali sevgi obyektigizga nisbatan sizdagi hissiyot darajasini bilib olish mumkin bo'ladi. Buning uchun qo'yilgan savolga javoblarning uchtasidan birini tanlashingiz zarurdir va tanlash jarayonida uzoq o'ylamaslik kerak bo'ladi.

1. Siz odamni bir marta ko'riboq, shu onning o'zida sevib qolish mumkinligiga ishonasizmi?

- a) nimaga bo'lmas ekan, aslida shuning o'zi haqiqiy sevgi;
- b) bunaqasi bo'lmaydi, bu sevgi emas;
- d) ba'zan shunaqasi ham bo'lib turadi.

2. Agar Sizning do'stlaringiz unga shubha, nafratli munosabatda bo'lishsa, siz uni sevgan bo'larmidingiz?

- a) so'zsiz;
- b) o'ylaymanki, ha;
- d) hech qachon.

3. Siz u bilan oldin ko'rgan filmingizni yana qaytadan ko'rgani borarmidingiz?

- a) agar u buni iltimos qilsa (so'rasa) borgan bo'lardim;
- b) buni qilishdan baxtiyor bo'lardim;
- d) Siz kinodan so'ng ham uchrashishingiz mumkin.

4. Agar u sizning do'stlaringizga yoqmasa, unda Siz nima qilgan bo'lardingiz?

a) do'stlarim bilan munosabatlarimni aniqlab olgan bo'lardim;

- b) to'g'ri tanlaganligimdan shubhalanardim;
- d) bunaqasini tasavvur qila olmayman.

5. U haqda gapirayotgan vaqtingizda dastavval nimani eslaysiz?

a) qaddi-qomatini, yoqimli yuzini, ba'zan chiroyli sochini;
b) aqlini, ma'lumotlilikini, tarbiyalanganligini, o'zini tuta bilishligini, gaplashganlikdagi tetik manerasini, ba'zan samimiyligini.

d) nima to'g'ri kelsa shuni, chunki o'zim tanlaganligimning barcha afzalliklarini men sanab o'tishga qodir emasman.

6. Sizlar birga bo'lmagan vaqtlaringizda, u nima bilan mashg'ul bo'lishligini bilasizmi?

a) hozircha Siz o'zingizning raqibingiz (raqibangiz) yo'qligiga ishonasiz, shuning uchun bunaqa arzimagan narsalar bilan boshingizni qotirib o'tirmaysiz;

b) ha, chunki biz doimo oxirgi uchrashuvimizdan so'ng o'tgan vaqtlarda har birimiz bilan nima hodisa ro'y berganligini bir-birimizga gapirib beramiz;

d) biz ikkalamiz ham erkinmiz, shuning uchun u nima xohlasa shuni qilishi mumkin.

7. Bir kunmas, bir kun Sizlarning munosabatlaringizga yakun yasalishini tasavvur qila olasizmi?

a) men bu haqda o'ylashga jur'at eta olmayman;

b) ertami-kechmi, bu, albatta ro'y beradi.

d) biz bir-birimizga shu qadar bog'lanib qolganmizki, bunday bo'lishi mumkin emas.

8. Hayot so'zsiz go'zal, faqat ikkovlon bo'lsa:

a) agar odam sevgan bo'lsa, aks holda u buni tasavvur ham qila olmaydi;

b) ha, yolg'izlikda zerikarli bo'ladi;

d) birgalikdagi hayot, faqat bir-birini haqiqatan sevuvchi ikki qalb uchun go'zal.

9. Agar Sizlar ikkovingiz yolg'iz qolgan bo'lsangiz, hayotning «buyuk» masalalari haqida gaplashasizlarmi?

a) bunga deyarli vaqt yetmaydi;

b) nimaga kerak?

d) ha, ko'p gaplashamiz.

10. Sizda u bilan tanishgan vaqtingizdagiga qaraganda boshqa odam bo'lib qolganligi haqidagi tasavvur bormi?

a) Siz uni qanday tasavvur qilganigizcha qoldi;

b) u boshqacha odam bo'lib chiqdi, biroq u shundayligicha sizga yana ham ko'proq yoqadi;

d) albatta, u dastlabki daqiqalarda tasavvur etilganidan ideal emas.

Test natijalarini baholash

¹	a	b	d	¹	a	b	d
1.	10	8	7	6.	4	7	0
2.	7	3	1	7.	9	4	7
3.	6	7	3	8.	9	1	7
4.	10	2	7	9.	2	1	7
5.	2	7	10	10.	10	7	5

Test natijalari tahlili

30 balldan kam bo'lsa: Balkim siz uchun do'stona munosabatlar uning shaxsidan muhimroqdir. Balkim siz uni yetarli darajada bilmasdirez, aniqroqi uning tashqi ko'rinishidan qoniqasiz, xolos. «Mana qanday g'alabaga erishdim, kimni o'zinga rom qilib oldim!», — degandek. Ba'zan bunday holat yoqimli hamdir, biroq ehtiyot bo'ling, axir Siz birovlar uchun emas, balki o'zingiz uchun juft tanlayapsiz!

31 dan 65 ballgacha: Ideal sevgi shunaqa: Siz o'z tanlaganingizning tashqi ko'rinishini ham, xarakterini ham sevasiz, uning nafaqat afzalliklarini, yaxshi xislatlarini qadrlab qolmay, balki yaxlitligicha qabul qilasiz. Siz uni bilishga va tushunishga intilasiz. Albatta, sizga o'z hayotingizni bajonidil baham ko'rishni istagan odamingiz bilan qiziqmasangiz, yana boshqa kim bilan qiziqasiz. Siz ikkovingiz hamma narsaga qodir ekanligingizni his qilasiz.

65 balldan ko'pi: Sevgi — ajoyib narsa! Faqat u agar ikkovlon sevgining o'zini emas, balki bir-birlari sevsa uzoq davom etishi mumkin. Siz o'z predmetingiz bilan shu qadar mashg'ul bo'lib ketgansizki, odamning o'zini ko'rmaysiz, balkim u haqidagi o'z tasavvuringizga asoslanasiz. Balkim siz o'z sevgilingizda, agar uni o'z fantaziyangizda yaratilgan ideal obrazgagina asoslanib qolmay, uni yaqindan bilishga intilsangiz pushaymon bo'lmaysiz.

Sevgi barcha tuyg'ular ichida eng qudratlisidir, shuning uchun ham u aql-u xayolni, qalb va vujudni egallab oladi.

F.Volter

4 - t e s t. «Sevgi-muhabbatga loyiqmisiz?» testi

O'zbekistonning taniqli yozuvchilaridan bo'lgan Pirimqul Qodirov ta'kidlaganidek «Sevgi — bu shunday bir ulug' va ilohiy so'zdirki, kimdir bu so'zni bir gap bilan, kimdir ko'p gap bilan, va yana kimdir aytolmay qoladi». Quyida taklif etilayotgan test biz oilaviy hayot kechishi yoki kimgadir keraklilik hissi bo'lishi uchun shaxsning o'zi bu hisga loyiqligini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun siz quyidagi gaplarni «ha» yoki «yo'q» so'zlari bilan tasdiqlashingiz kerak bo'ladi.

1. Erkak kishi, menimcha, hamisha ayolga nisbatan faolroq bo'lishi kerak.

2. Men sevimli kishimga hatto arzimas sababga ko'ra ham shodlik bag'ishlashni yaxshi ko'raman.

3. Begona kishilar orasida sevimli, muloyim bo'lishdan o'zimni yo'qotib qo'yaman.

4. Sevimli kishimga o'zimni nihoyatda zarur, deb hisoblayman.

5. Hamkorlikdagi hayotning 15 yilidan keyin xislatlar asosiy narsaga aylanadi.

6. Men osonlik bilan o'z his-tuyg'ularimni namoyon etaman va ular haqida bamaylixtir gapira olaman.

7. Farzandlarim, uyim, xislatlarim bo'lmaganida hayotimni o'zgartirardim.

8. Taqdirim bilan bog'liq bo'lgan kishi men uchun eng aziz va mehribon inson sanaladi.

9. Ochig'ini aytganda, sevgi nima ekanini aytishga qiyinalaman.

10. Men sevadigan inson bilan oramizda yuz berayotgan narsalar juda muhim va asosan o'zim uchun.

11. Men sevgilimni sog'inishdan ko'ra, uni ko'proq rashk qilaman.

12. Taqdir meni bog'lagan insonni juda sevaman.

13. Ayrim paytlari sevgan insondan charchab ketaman.

14. Har doim suyukli kishini shod etishga harakat qilaman.

15. Ba'zi hollarda bir-birimizni tushunmayotgandek va turmushimizni turlicha tasavvur etayotgandek tuyuladi.

16. Oilaviy hayot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim qarorlarni er-xotindan biri qabul qilishi lozim.

Test natijalarini baholash

2,4,6,8,10,12,14,16 — savollardagi «ha» va

1,3,5,7,9,11,13,15 — savollardagi «yo'q»

javobiga 10 balldan, har bir savol belgisiga 5 balldan qo'shing.

Test natijalari tahlili

100—160 ball: Siz his-hayajonga beriladigan odamlar turiga mansubdirlarsiz. Chuqur sevisht xislatiga egasiz va vafodor bo'la olasiz, o'z muhabbatingizdan tortinmaysiz va uni namoyon eta bilasiz. Ammo ba'zi bir holatlarda muhabbatingiz Siz uchun qayg'u-alam manbayiga aylanishi, yaqin kishingiz bilan munosabatdagi qiyinchiliklar haqiqiy fojiaga sabab bo'lishi mumkin. Sevgining murakkab san'atini o'rganib olish uchun barcha ko'rsatkichlarga egasiz, chunki sizda sevisht va shunday javob his-tuyg'ularini uyg'otish qobiliyati mujassam.

50—99 ball: Siz ta'sirchan insonsiz. His-tuyg'u masalasi hayot uning hamma vaqt ham birinchi o'rinda turmasligini isbotlab bergan bo'lsa-da, siz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday holatlar bo'lganki, tuyg'u butunlay sizni qamrab olgan, biroq bu vaziyatlarda o'zingizni yo'qotish xavfi sizdan yiroq. Realizm, sabr-bardosh, ayrim paytlarda g'urur — aynan shular sizning xatti-harakatingizni boshqarib turadi. O'zgarib turish xususiyatingiz sevgilingiz tomonidan unga nisbatan sovuqlik yoki erkatoylik, deb qabul qilinishi mumkin.

5 - t e s t. «Nikohga ma'naviy tayyorgarlik» testi

Tekshirilayotgan odam quyidagi keltirilgan 16 ta savol va tasdiqlarning har biriga berilgan javoblardan birini, ya'ni o'z qarashlariga mos kelganini tanlab javob berishi kerak.

Bunda: Butunlay qo'shilaman — 5 ball, qo'shilaman — 4 ball, biror narsa deyish qiyin — 3 ball, qo'shilmayman — 2 ball, mutlaqo qo'shilmayman — 1 ball sifatida baholanadi.

1. Agar odamlar oila-oila bo'lib yashashni bas qilsalar, unda hayot nihoyatda jozibasiz bo'lib qolgan bo'lar edi.

2. Oilaviy hayotning yaxshi bo‘lishida maxsus bilimlardan ko‘ra omadning ahamiyati kattadir.

3. Erta boshlangan jinsiy hayot nafaqat sog‘liqqa, balki bo‘ljak oilaning muvaffaqiyatiga ham katta ziyon keltiradi.

4. Agar turmush o‘rtog‘i bilan yumshoq munosabatda bo‘linsa, uning holati e‘tiborga olinaversa, unga achinilsa, hamdardlik qilina-versa, o‘z ko‘zlaganingga erishish juda qiyin bo‘ladi.

5. Topshirilgan ishni oxirigacha bajarish — bu men uchun burchdir.

6. Ota-onalar va ularning voyaga yetgan farzandlari bilan bo‘ladigan nizolar bartaraf qilinib bo‘linmaydigan muqarrar nizolardir.

7. Men o‘z tengdoshlarim bilan bo‘ladigan nizolarni bar-taraf eta olaman.

8. Xotin (er) oldida o‘z odatlaridan qaytishi yoki ularni o‘zgartirishi kerak emas, chunki bu tobelikka olib keladi.

9. Har kim o‘z baxtini yaratuvchisidir, degan ibora oilaviy hayotga butunlay taalluqlidir.

10. Men, oila ko‘proq hayotdan qoniqqanlikka olib kelishi-ga ishonaman.

11. Agar odamda ezgulik, xushmuomalalik bor bo‘lsa, de-mak oilaviy hayot uchun juda ko‘p narsa bordir.

12. Agar oilaviy hayot xuddi orzu qilinganidek yaxshi tashkil qilinmayotgan bo‘lsa, unda hech qanday chora uning buzilishining oldini ola olmaydi, shuning uchun yaxshisi ajra-lishgan ma’qul.

13. Men doimo ota-onamni tushunishga harakat qilaman, agar ularning talablari haqligiga ishonsam, ularga bo‘ysuna-man.

14. Kishining ayrim beparvoligi va yengiltakligi, hatto oilaviy hayotni mustahkamlaydi ham.

15. Kimki o‘zini oilaviy hayotga to‘la tayyorman desa, tez-da o‘zini qayta baholashga to‘g‘ri keladi. Chunki doimo ni-manidir o‘rganish va o‘zida nimanidir o‘zgartirishga to‘g‘ri ke-ladigan narsalar mavjud.

16. Qarama-qarshi jins vakillari bilan muloqotda bo‘lar ekan, odamga o‘zini atay xushmuomala va sertakalluf tutish-ning zarurati yo‘q.

Natijalarni qayta ishlash

Tasdiqlarning yuqoridagi ro'yxatdagi tartib raqamlari bo'yicha toq va juft raqamli tasdiqlar bo'yicha olingan ballar yig'indilari alohida-alohida hisoblab chiqariladi.

S1 — toq nomerlar yig'indisi.

S2 — juft nomerlar yig'indisi.

Natija quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K = \frac{32 + S1 - S2}{64} \times 100\%$$

Agar topilgan son, ya'ni K 50% dan kam bo'lsa, shaxsning oilaviy hayotga ma'naviy tayyorgarligi past darajada bo'ladi.

Agar K 50% dan ko'p bo'lsa, oilaviy hayotga ma'naviy tayyorgarlik o'rtacha va yuqori darajada bo'ladi.

6 - t e s t. «Turmushga chiqishga tayyormisiz?» testi (Qizlar uchun test)

Yoshlarning oila deb atalmish muqaddas dargohda yaxshi yashab ketishlari ko'p jihatdan ularning oilaviy hayotga jismoniy, ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik tayyorgarlik holatlariga ham bog'liq. O'zingizni bu jihatlardan o'rganib olish uchun bo'lsangiz, ushbu testning savollarini diqqat bilan o'qib chiqib, ularga berilgan javoblardan o'zingizga ma'qulini tanlang va o'zingizni bilib oling.

1. Turmush qurganingizdan keyin o'z kasbingizni saqlab qolasizmi?

- a) 1-farzand tug'ilgach, ishga qaytaman;
- b) bunga astoydil harakat qilaman;
- d) yo'q, mening ishim qoniqtirmaydi.

2. Farzand ko'rishni xohlaysizmi?

- a) eng kami 2 ta;
- b) yo'q;
- d) turmush o'rtog'im xohlagani uchun.

3. Davralarda turmush o'rtog'ingiz boshqa ayol bilan qiziqayotganini sezib qolsangiz nima qilar edingiz?

- a) boshqa kishiga yoqishga harakat qilaman;

- b) janjal chiqaraman;
d) bu qilig'i meni ajablantiradi, lekin men sezdirmaslikka harakat qilaman.
4. Siz rashkchimisiz?
a) ha;
b) unchalik emas;
d) o'z turmush o'rtog'imga ishonaman deb o'ylayman.
5. Janjallashib qolganda kim past keladi?
a) men;
b) u;
d) bir marta, u bir marta men.
6. Siz shirin taomlar pishirishni yaxshi bilasizmi?
a) bunday bo'lish uchun o'qib olish kerak;
b) faqat bir necha taomlarnigina;
d) pishirishni juda-juda sevaman.
7. Bo'lajak turmush o'rtog'ingizdan yashiradigan sir-laringiz bormi?
a) yo'q;
b) ba'zan;
d) ba'zi bir narsalar borki, men ular haqida aytishga uyala-man.
8. Sizning turmush o'rtog'ingiz futbol ishqibozi bo'lsa-chi?
a) bu qiziqishni yo'qotishga harakat qilaman;
b) u tomoshaga ketganida men o'z sevgan mashg'ulotim bilan shug'ullanaman;
d) o'zim ham ishqiboz bo'lib olaman.
9. Ota-onangiz nikohi qanday?
a) chidasa bo'ladigan;
b) a'lo darajada;
d) ajrashishgan.
10. Sizningcha, turmush o'rtog'ingiz ishga sho'ng'ib ketishi mumkinmi?
a) ha;
b) uning ishlari bilan qiziqmayman;
d) mansab hayotda uncha kerak emas.
11. «Moda» degan tushuncha sizlarda har xil qarashlar bo'lsa, siz nima qilgan bo'lardingiz?
a) yon berar edim;
b) rozi bo'lardim;

d) qarashlarini o'zgartirishga harakat qilardim.

12. «Sinash nikohlari»ga munosabatingiz qanday?

a) rozi bo'lmas edim;

b) bir-birlarini yanada yaqinroq o'rganish deb tushunaman;

d) bu haqda biron nima deya olmayman.

13. Sizningcha ayol kishi turmush qurishdan oldin boshqa erkaklar bilan uchrashib yurgan bo'lsa, yaxshimi yoki yomonmi?

a) menimcha bu kerak;

b) yo'q;

d) vaziyatga qarab.

14. Turmush o'rtog'ingiz boshqa ayol bilan uchrashayotganini bilib (sezib) qolsangiz, kechirar edingizmi?

a) ha;

b) yo'q;

d) vaziyatga qarab.

Test natijalarini baholash

Savol javob	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
a	2	3	2	1	2	1	3	1	2	1	3	3	2	2
b	3	1	1	2	1	2	2	3	3	2	2	1	1	1
d	1	2	3	3	3	3	1	2	1	3	1	2	3	3

Test natijalari tahlili

14—23 ball: Balkim vaqt o'tishi bilan siz hayotga bo'lgan nuqtayi nazarangizni, dunyoqarashingizni o'zgartirarsiz. Hozircha sizlarning oralaringizda nizolar bo'lib turadi, chunki siz o'zingizni bo'lajak turmush o'rtog'ingizga o'rgana olmaysiz. Asosan sabr-toqatli bo'ling, kelgusida o'z turmush o'rtog'ingizga yon berishga odatlanishga harakat qiling.

24—32 ball: Siz uchun turmushga chiqish biroz ertaroqdir. Bu borada biroz yetilishingiz lozim. Balki bu boradagi, ya'ni o'zingizning turmushga tayyorgarligingiz borasidagi ikkilanishingiz bejiz emas. Umuman nikoh har doim ham ajralish emas. Siz turmush o'rtog'ingizni tushunasiz. Balki hayotda sizga hayotiy tajriba, o'z kuchingizga ishonch yetishmayotgandir. Agar o'z xatti-harakatlaringizni nazorat qilib borsangiz, sizdan yaxshi turmush o'rtoq chiqishiga imkoniyatingiz bor. Ko'proq

o‘qing, bu bilimlar ko‘proq sizga kuch qo‘shadi, o‘zingizni kasb-hunarga yo‘naltiring — bu sizning mustaqil bo‘lishingizga yordam beradi.

33—47 ball: Sizga «ha» degan odam baxtlidir. Sizning nikohingizda qora bulutlar paydo bo‘lmaydi (Sizning ishtirokingizda, ya‘ni siz tufayli emas, albatta). Lekin bu sizning qiziqishlaringizdan voz kechishingizni anglatmaydi. Siz juda aqlli, farosatli odamsiz. Bu fazilatlarangiz turmush o‘rtog‘ingizning shaxsiy qiziqishlariga yordam beradi. Shuning bilan birgalikda Siz o‘z mustaqilligingizga erishasiz.

11.2. OILA QURGANLAR UCHUN TESTLAR

Bir-birini bilish — bu bir-biri haqida hamma narsani bilish emas, bu bir-biriga nisbatan ishonchli va yoqimli munosabatda bo‘lish, bir-biriga ishonish demakdir.

A.Shveysar

1 - t e s t. «Siz bir-biringizni tushunasizmi?» testi

Sevgi o‘z yo‘liga, biroq turmush qurganlar, agar ular haqiqatan ham uzoq va baxtli umr qurishmoqchi bo‘lsalar, unda yana bir narsa, ya‘ni ularning bir-birlarini tushunishlari ham muhimdir. Shuning uchun ushbu test orqali Siz o‘z oilangizda bir-birini tushunish uchun qanday holatlar mavjudligini aniqlab olishingiz mumkin. Buning uchun berilgan savolga javob namunasining o‘zingizga ma‘qulini tez belgilashingiz kerak bo‘ladi.

1. Sizda orangizdagi munosabatni jiddiy hal qilib olish kerak, degan fikr mavjudmi?

a) ha — 1 ball;

b) yo‘q — 0 ball;

d) munosabatlarni hal qilib olish foydasiz — 2 ball.

2. Agar siz muhim bir savol bermoqchi bo‘lsangiz, buni to‘g‘ridan to‘g‘ri, ortiqcha urinishlarsiz amalga oshirishingiz mumkinmi?

a) ha — 0 ball;

b) ha, lekin buning uchun qulay vaziyat talab etiladi — 1 ball;

d) bu haqda so‘z bo‘lishi mumkin emas — 2 ball.

3. Turmush o'rtog'ingiz ko'pincha o'zini qiynoqqa solayotgan muammolar haqida indamaydi deb hisoblaysizmi?

a) ha — 1 ball;

b) tasavvur qila olmayman — 2 ball;

d) uning barcha muammolarini bilaman — 0 ball.

4. Har qanday vaqtda ham turmush o'rtog'ingiz bilan muhim narsalar haqida gaplasha olasizmi?

a) ha — 0 ball;

b) har doim emas, imkoniyat bo'lgan vaziyatni kutish kerak — 1 ball;

d) deyarli ko'p vaqtda yo'q, chunki uni bo'sh vaqti yo'q — 2 ball.

5. Siz bir-biringiz bilan suhbatlashganingizda gaplaringizni aniq o'ylab gapirasizmi?

a) ha, har bir gapimni o'ylab gapiraman — 1 ball;

b) yo'q, bir-birimizga nimani o'ylasak to'g'ri gapiraveramiz — 2 ball;

d) o'z fikrimni aytaman, lekin boshqaga ham quloq solaman — 0 ball.

6. Siz o'z muammolaringizni turmush o'rtog'ingiz bilan hal qilganingizda unga ham tashvish orttirayotgandek his qilasizmi?

a) ha, bunday tez-tez bo'ladi — 2 ball;

b) u mening muammolarimga e'tibor bermaydi — 1 ball;

d) u muammolarni men bilan doim hal etadi — 0 ball.

7. Sizning biringiz boshqalar bilan maslahatlashmagan holda muhim muammoni hal eta olasizmi?

a) shunday ham bo'ladi — 2 ball;

b) birgalikda hal qilamiz, lekin har birimiz o'z fikrimizda qolamiz — 1 ball;

d) birgalikda muhokama qilamiz va hal etamiz — 0 ball.

8. Siz umr yo'ldoshingizdan ko'ra ko'proq do'stlaringiz bilan o'z fikringizni bo'lishasizmi?

a) ba'zan shunday bo'lib turadi — 1 ball;

b) yo'q, men o'z muammolarimni turmush o'rtog'im bilan muhokama qilaman — 0 ball;

d) do'stlarim meni yaxshiroq tushunadi — 2 ball.

9. Turmush o'rtog'ingiz bilan gaplashganda Siz boshqa narsalar haqida o'ylaydigan holatlar bo'lib turadimi?

a) shunday ham bo'lib turadi — 2 ball;

b) yo‘q, men diqqat bilan eshitaman — 0 ball;

d) agar uni jahli chiqqanini sezsam diqqat-e’tiborimni qaratishga intilaman — 1 ball.

10. Suhbat jarayonida siz fikrlaringizni oldin aytib olishga harakat qilasizmi?

a) albatta — 2 ball;

b) turmush o‘rtog‘im o‘zini o‘ylantirgan muammoni aytishi uchun imkon beraman — 0 ball;

d) ikkalamiz birga muammolarni hal etishimiz zarur, deb hisoblayman. — 1 ball.

Test natijalari tahlili

0—10 ballgacha: Sizlarda har biringiz o‘z muammolaringiz haqida gapirib berish qabul qilingan. Shuning uchun sizning oilangizda o‘z muammolaringiz haqida gapirish yoqimlidir. Sizlar o‘z muammolaringizni bo‘lishasiz. Sizlarning har biringiz, o‘zingizni nima bezovta qilayotgan bo‘lsa, shu haqda gapirasiz va sherigingiz uni diqqat bilan tinglaydi. Sizni uygatgilaringiz yaxshi tushunganliklari tufayli o‘z muammolaringizni boshqalar bilan bo‘lishish uchun zarurat yo‘q.

11—20 ballar: Sizlar bir-biringiz bilan o‘z muammolaringiz haqida maslahatlashmaysizlar, deb bo‘lmaydi. Biroq shunday masalalar borki, ular haqida Siz gapirmaysiz va ularni muhokama qilishga jur‘at eta olmaysiz. Bu esa begonalanishga olib keladi. Siz o‘zingizni tushunadigan odamni chetdan qidira boshlaysiz. Chunki Siz sizni tushunadigan kishi oldingizda bo‘lishini istaysiz hamda shunday kishini izlayapsiz.

Kelin-kuyovlar nikohga qadar hamma narsaga ko‘zlarini kattaroq ochib qarashlari, nikohdan keyin esa ba‘zan ko‘rib ko‘rmaganga olishlari kerak.

Madlen Skyuderi

2 - t e s t. «Oilangizda nizolar mavjudmi?» testi

Oilaviy hayot hamisha bayramlar, to‘ylar va betashvish kunlardan iborat emas. Oilaviy hayotda gohida tushunmovchiliklar, nizolar, ziddiyatli holatlar ham yuz beradi. Navbatdagi test oilangizdagi nizolarning mavjudligini aniqlaydi.

1. Siz uchun muhimi nima?
 - a) nikohning o'zi oilali kishidir, deb hisoblash imkoniyatidir — 1 ball;
 - b) turmush o'rtoqsiz, nikohsiz hayot yomon bo'lmas edi — 0 ball.
2. Nikohga yetilganlik bilan qarab, uni kattalarning o'yiniga o'xshaydi, deb hisoblaysizmi?
 - a) ha — 1 ball;
 - b) yo'q — 0 ball.
3. Ota-onangizga moddiy bog'langanmisiz?
 - a) ha — 1 ball;
 - b) yo'q — 0 ball.
4. Sizning nikoh va kutishlar borasidagi qarashlaringiz mos tushadimi?
 - a) ha — 0 ball;
 - b) yo'q — 1 ball.
5. Oila turmush tarzi, maishiy-xo'jalik sohasi haqida tasavvurlaringiz turmush o'rtog'ingiz hamda boshqa oila a'zolari bilan bir xilmi?
 - a) ha — 0 ball;
 - b) yo'q — 1 ball.
6. Munosabatlarni oydinlashtirishda nizo va kelishmovchiliklar tez-tez bo'lib turadimi?
 - a) ha — 1 ball;
 - b) yo'q — 0 ball.
7. Sizlarni umumiy qiziqishlaringiz, qarashlaringiz, mashg'ulotlaringiz mavjudmi?
 - a) ha — 0 ball;
 - b) yo'q — 1 ball.
8. Bolalaringiz nechta?
 - a) 2 ta va undan ortiq — 0 ball;
 - b) 2 tadan kam — 1 ball.
9. Bolalaringiz tarbiyasi qanday?
 - a) yuqori — 0 ball;
 - b) o'rtacha yoki past — 1 ball.

Test natijalari tahlili

0—2 *ballgacha*: Ajralish sizning oilangizga xavf solayotgani yo‘q. Mustahkam oila qurish, qiyinchiliklarni yengish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Oddiy tortishuvlar o‘zaro munosabatlaringizga ta’sir ko‘rsatmaydi.

3—5 *ballgacha*: Sizning munosabatlaringiz taranglik chegarasida. Siz turmush o‘rtog‘ingizdan doim mamnun emas-siz. Siz doim ham o‘zingizni tuta bilmaysiz, qo‘lga ololmaysiz. Bunday vaziyatlar ajralish uchun xavflidir. Bunday holatlardan uzoqlashing. Oilaviy hayotingiz ayrim hollarda zerikarli tuyulsa ham, siz undan qoniqasiz. Sizning o‘zaro munosabatlaringizda muloqot madaniyatiga e’tibor bering. Bir-biringizga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga harakat qiling.

6—9 *ballgacha*: Oilangizda ajralish vaziyati yuzaga kelgan. Oilaviy burchlarni taqsimlanishini haqiqat nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish, muammolarni bartaraf etish zarur. Oiladagi muloqot jarayonini o‘zgartirishga e’tibor bering, er va xotin har biringiz o‘zingiz uchun hayotiy qoniqmaslik sababini, turmush o‘rtog‘ingizni hayotdan qoniqmaslik sabablarini, imkoniyatlarini o‘rganib chiqish zarur. Bir-biringizga nazokatli, diqqat-e’tiborli, yumshoq, yaxshi niyat bilan murojaat qiling. O‘z navbatida bir-biringizga kamroq tanbeh bering. Er-xotinni bir-biri bilan bog‘laydigan, biriktiradigan xususiyatlarga ko‘proq intiling.

Yaxshi so‘z jon ozig‘i, yomon so‘z bosh qozig‘i.

Xalq maqoli

3 - t e s t. «Siz janjalkash insonmisiz?» testi

Gohida oilaviy munosabatlarda oila a’zolari orasida turli darajada kelishmovchiliklar va nizolar yuzaga kelishi mumkinligini bilamiz. Bunda esa insonning o‘zidagi janjalga moyillik darajasini ham inkor etib bo‘lmaydi. Siz o‘zingizni qanchalik janjalkash ekanligingizni aniqlamoqchi bo‘lsangiz, ushbu testni o‘zingizda sinab ko‘ring. Buning uchun savollarni diqqat bilan o‘qib, ularni keltirilgan javoblardan o‘zingizga ma’qulini tanlab javob bering.

1. Tasavvur qiling, jamoat transportida bahslashuv boshlandi. Siz qanday yo‘l tutasiz?

- a) janjaldan qochishga harakat qilaman;
- b) qo'shningiz, ya'ni aziyat chekkan kishi tomoni yoki kim haq bo'lsa o'shaning tomonini olishingiz mumkin;
- d) har doim qo'shilasiz va oxirigacha o'z fikringizni rostligini isbotlashga harakat qilasiz.

2. Oila davrasida boshqalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar uchun aybdorni tanqid qilasizmi?

- a) yo'q;
- b) ha, lekin unga nisbatan o'z shaxsiy munosabatingizga bog'liq ravishda;
- d) xatolar uchun har doim tanqid qilasiz.

3. Sizning oilada bevosita oila boshliqlari sizningcha samarasiz ko'ringan o'z ish rejasini bayon qilayaptilar. Sizga afzal tuyulgan o'z rejangizni taklif etasizmi?

- a) agar boshqalar sizni qo'llasa unda mayli;
- b) albatta, siz o'z rejangizni quvvatlaysiz;
- d) tanqid uchun sizni qattiq koyishlaridan qo'rqasiz va indamaysiz.

4. Siz o'z yaqinlaringiz, do'stlaringiz bilan bahslashishni yaxshi ko'rasizmi?

- a) faqat xafa bo'lmaydiganlar bilan;
- b) ha, lekin jiddiy, muhim masalalar bo'yicha emas;
- d) siz hamma uchun har qanday sababga ko'ra bahslasha olasiz.

5. Kimdir navbatsiz sizdan oldinga o'tib olishga harakat qilayapti, deylik, u holda:

- a) Siz undan kam emasligingizni hisobga olib oldinga o'tib olishga harakat qilasiz;
- b) norozi bo'lasiz, ammo ichingizda;
- d) o'z noroziligingizni ochiq aytasiz.

6. Tassavvur qiling, oilangizda biror ish bo'yicha tadbirlar taklif qilinmoqda, unda dadil fikrlardan bir qatorda xatolar ham mavjud. Bilasizki, sizning fikringiz hal qiluvchi bo'ladi. Qanday yo'l tutasiz?

- a) ushbu taklif bo'yicha ijobiy fikringizni aytasiz;
- b) taklifdagi ijobiy tomonlarini ajratib ko'rasiz va ishni davom ettirishga imkoniyat berilishini taklif etasiz;
- d) ishni tanqid qilasiz, chunki, yangilik bo'lishi uchun xatoga yo'l qo'yish mumkin emas.

7. Tasavvur qiling: qaynonangiz (eringiz, xotiningiz) Sizga

har doim iqtisod va tejamkorlik zarurligi to'g'risida gapiradi va o'zi bo'lsa doimo qimmat narsalarni xarid etadi. Siz bunga nima derdingiz?

a) ha, xarid qilgan narsasi o'ziga yoqsa uni ma'qullaysiz;

b) bu narsa didsizligidan dalolat deb bilasiz;

d) shundayligi tufayli u kishi bilan har doim janjallashib yurasiz.

8. Siz mahalla chekkasida chekib turgan o'smirlarni uchratib qoldingiz. Qanday harakat qilasiz?

a) boshqalarni yomon tarbiyalagan farzandlari uchun kayfiyatimni buzib nima qilaman, deysiz;

b) ularga tanbeh berasiz;

d) agar bu jamoat joyida bo'lganida ularning adabini bergan bo'lar edim, deysiz.

9. Restoranda, kafeda yoki magazinda sizning haqqingizdan urib qolishganligini sezdingiz. U holda nima qilasiz?

a) choychaqani bermaysiz;

b) boshqatdan hisob-kitobni talab qilasiz;

d) janjal bo'lishiga olib kelasiz.

10. Siz dam olish oromgohidasiz. Bu yerdagi xodimlar o'z ishlarini yaxshi bajarmasa, boshqa narsalar bilan mashg'ul bo'laversa, bu hol sizni achchiqlantiradimi?

a) ha, ammo buni o'zingizdan noroziligingizning aytganingiz bilan biror narsani o'zgartirish amri mahol;

b) ularning ustidan arz qilish yo'lini topasiz;

d) Siz noroziligingizni xodimlarga ochiq aytasiz.

11. Siz o'z o'smir o'g'lingiz bilan bahslashib uning haq ekanligiga ishonch hosil qildingiz. Siz bunda nohaq ekanligingizni tan olasizmi?

a) yo'q;

b) albatta, tan olaman;

d) nohaq ekanligingizni tan olsangiz bola oldida qanday obro'ga ega bo'lishingiz mumkinligini o'ylaysiz.

Ballarni hisoblash: a — 4 ball; b — 2 ball; d — 0 ball.

Test natijalari tahlili

30—40 ballgacha: Siz farosatli odamsiz, janjalni xohlamaysiz. Hatto janjalli holatni silliqlab olsangiz-da, bunday holatlardan osonlikcha qochasiz. Agarda mojarolarga aralashishingizga to'g'ri kelsa, bu sizning oilaviy munosabati-

ngizda, holatingizda va do'stlik munosabatlaringizda qanday aks etishini hisobga olasiz. Siz atrofdagilarga yoqimli ko'rinishga harakat qilasiz. Ammo ularga yordam kerak bo'lib qolsa, yordam ko'rsatishga har doim ham otlanavermaysiz. Bu haqida boshqalar qanday fikrda ekanligi to'g'risida ham bir o'ylab ko'ring.

15—29 ballgacha: Siz to'g'ringizda janjalkash odam deyishadi. Bu Sizning oilaviy, shaxsiy va o'zaro munosabatlaringizga qanday ta'sir qilishidan qat'i nazar, o'z fikringizda dadil turasiz. Shuning uchun ham sizni hurmat qilishadi.

10—14 ballar: Siz tortishuv uchun sabab izlaysiz. Ammo ularning ko'pchiligi arziyasiz, ortiqchadir. Siz tanqid qilishni yaxshi ko'rasiz, ammo bu sizga foyda bermaydi. Hatto siz nohaq bo'lsangiz ham o'z fikringizni o'tkazishga harakat qilasiz. Agar sizni janjal qilishni yaxshi ko'radi desalar, xafa bo'lmaysiz. O'ylab ko'ring, Sizning xulq-atvoringizda nomukammallik nuqsoni yashirinmaganmikan?

Boshqalarning baxtini o'ylab o'z baxtimizni topamiz.

Platon

4 - t e s t. «Nikohingizda pul muammosi» testi

Oilaviy hayot tashvishlarsiz hamda baxtli kechishi uchun albatta iqtisodiy jihatdan ham oqilona ish yuritish kerak bo'ladi. Navbatdagi test hayotimizda pulni iqtisod qilish yoki sarflash darajamiz qandayligidan xabardor bo'lishimiz kerakligini bildiradi. Buning uchun savolga tezda javob berishingiz lozim.

1. Sizning oilangizda moliyaviy muammolarni kim hal qiladi?

- a) otam;
- b) onam;
- d) ota-onam birgalikda;
- e) boshqalar.

2. Sizning yoshligingizda onangiz ishlaganmi? (Uy ishlari-dan tashqari)

- a) ha;
- b) yo'q;
- d) ha, ba'zida.

3. Sizning ota-onangiz quyidagilardan qaysilariga ega bo'lganlar?

- a) butun chiqimlar uchun umumiy jamg'arma mavjud edi;
- b) umumiy va alohida jamg'arma mavjud bo'lgan;
- d) pulning boshqa bo'laklari.

4. Siz o'zingizni pulga bo'lgan munosabatingizni qanday izohlaysiz?

- a) pul menda doimo yetishmaydi;
- b) pul menga zo'rg'a uchma-uch yetadi;
- d) yana nimalarnidir sotib olishim kerak, deb tejab-tergab ishlataman.

5. Pulni qanday sarflaganda o'zingizni yaxshi his qilasiz?

- a) o'zingizga (kiyim, mayda-chuyda narsalar, turli sayohat uchun);
- b) do'stlaringiz uchun (sovg'a, o'yin-kulgilar uchun);
- d) oila a'zolari uchun.

6. Agar siz kutilmaganda 50000 so'm yutib olsangiz, nimalarga sarf etar edingiz?

- a) hammasini kundalik chiqimlar uchun sarf qilardim;
- b) hammasini saqlab qo'yar edim;
- d) qarzlaringiz yoki to'lovlar uchun sarf qilardim.

7. Siz o'zingizni moliyaviy muammolaringizni hal qilishdagi qobiliyatingizni qanday baholar edingiz?

- a) a'lo;
- b) yaxshi;
- d) o'rtacha;
- e) yomon.

8. Sizda g'amgin holat mavjud bo'lib, o'zingizni notinch, deb hisoblasangiz, nima uchundir asabingiz tinch emas, shunda nima qilar edingiz?

- a) bu mavzuda yaqinlarim yoki tanishlarim bilan suhbatlashardim;
- b) do'stonlarga yaxshi narsalar xarid qilish uchun borardim.
- d) sport bilan shug'ullanardim yoki sayrga chiqardim;
- c) uxlar edim.

9. Oilada moliyaviy masalalarni qanday hal etish zarur?

- a) er-xotin umumiy jamg'armasi bo'lib, chiqimlarni biri boshqarib turishi kerak;
- b) er-xotinlar umumiy jamg'armasi bo'lib, chiqimlar muammosini birgalikda hal etishlari kerak;
- d) er-xotin o'zlarining alohida pullari bo'lib, chiqimlar uchun alohida jamg'arma bo'lishi kerak.

10. Siz ayol (erkak) xohlasa o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlashi mumkin, deb hisoblaysizmi?

a) albatta;

b) yo‘q;

d) bolalar ancha katta bo‘lib qolishsa, oilaviy iqtisodiy holat talab etsa ishlashi mumkin.

Ballarni hisoblash tartibi: agar har ikkalangizni javoblaringiz bir xil bo‘lsa, har bir javob uchun 10 balldan, har bitta javobingiz bir xil emas, lekin o‘xshash bo‘lsa, 5 balldan. Javoblaringiz farq qilsa, 0 balldan hisoblab chiqing.

Test natijalari tahlili

80—100 ballgacha: Sizlar o‘z shaxsiy moliyaviy muammolaringizni juda yaxshi hal eta olasiz. Sizning har biringiz boshqa oilalarning moliyaviy muammolarini hal etishda yaxshi maslahatchi bo‘la olasiz.

60 — 80 ballgacha: Sizning moliyaviy muammolarni hal etishdagi qobiliyatingizni kamligi shaxsiy hayotingizdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Siz unga e’tibor bering.

40—60 ballgacha: Baxt pulda emas. Ba’zan moliyaviy qiyinchiliklarni ortishi baxtsizlik holatlariga, his-tuyg‘uni so‘nishiga olib kelishi mumkin. Sizlarni hozirgi kunda nima uzoqlashtirayotganligi haqida o‘ylang.

40 balldan kam: Sizdan ko‘ra moliyaviy masalalarni yaxshiroq hal etadigan maslahatchini topmaguningizcha chiqimlar uchun pulni sarf etmang. Sizning oilangizda psixoiqtisodiy inqiroz mavjud. Siz yaxshi bir maslahatchi yoki psixologga uchrashingiz zarur.

Kingadir baxtli ko‘ringan emas, balki o‘zini baxtli sezgan odam baxtlidir.

Publiliy Sir

5 - t e s t. «Siz baxtlimisiz?» testi (erkaklar uchun test)

Sharq oilasida erkakning o‘rni alohida, ya’ni xonadon hokimi sanaladi. Ammo bundan foydalanib o‘z huzur-halovatini ko‘zlovchi erkaklar ham yo‘q emas. Siz o‘zingizni oilada qanday tutasiz? Oilangizning huzur-halovati sizni qiziqtiradimi? Mana bu savollarga e’tibor bering.

	Savollar	ha	ba'zan	yo'q
1.	O'z hayotingizni qaytadan qurib chiqsangiz umringizni boshqatdan boshlashni xohlarmidingiz?	10	5	2
2.	Xotiningizni kiyinishda didi past deb o'ylaysizmi?	8	2	4
3.	Jahlingiz chiqsa oila a'zolaringizga baqirib hovuringizdan chiqasizmi?	7	3	5
4.	Kechqurunlari har doim uyda bo'lasizmi?	2	5	10
5.	Turmush o'rtog'ingiz yoqtirgan narsalar (gul, kiyim, kitob)dan ogohmisiz?	4	9	10
6.	Bo'ydoqlik yillaringizni tez-tez xotirlab turasizmi?	12	5	6
7.	Turmush o'rtog'ingiz bilan sayil (kino, teatr)ga tez-tez tushib turasizmi?	7	5	4
8.	O'z turmush o'rtog'ingizni boshqa ayollar bilan taqqoslash sizga yoqadimi?	9	2	1
9.	Mehmonga turmush o'rtog'ingiz bilan birga borishni istaysizmi?	8	2	3

Test natijalari tahlili

69 va undan ko'p ball: Siz o'z oilangizda unchalik baxtli emassiz. Buning ko'p sabablari sizning xulqingiz bilan bog'liq. Endigi vazifa: oila a'zolaringizga, ayniqsa, turmush o'rtog'ingizga diqqat-e'tiboringizni kuchaytiring, uni shaxs sifatida qadrlang, shunda siz ham izzat ko'rasiz. Balki turmush o'rtog'ingizga bo'lgan sovuq muomalangiz uning sizga bo'lgan beparvoligidir. U holda turmush o'rtog'ingiz bilan jiddiy gaplashib oling. Bir-birlaringizni tushunishga harakat qiling. Jiddiy suhbatning kechi bo'lmaydi.

40—68 ball: Siz o'z oilangizdan rozisiz. Oiladagi shart-sharoit sizni qoniqtiradi. Shunga qaramasdan ba'zan yoshlik xotiralari xayolingizni olib qochadi, ammo bu xayolparast

ekanligingizdan dalolat beradi va buning oilaga daxli yo‘q. Oilangizda halovat sizga yetadi.

33 dan kam ball: Ba’zida oilangiz bilan xarxasha qilib turasiz. Oilada nimalar bo‘lmaydi, axir siz baxtlisiz.

Barchaga iltifotli bo‘l-u, ammo takallufsizlik qilma.

V. Shekspir

6 - t e s t. «Bag‘rikenglik qila olasizmi?» testi (Ayollar uchun test)

Oilaviy munosabatlarda bag‘rikenglik, ya’ni hadeb hamma narsaga e’tibor beravermaslik, har narsani o‘ziga yaqin olmaslikni bilib olish uchun biz o‘zimizni qanday ekanligimizni test yordamida sinab olishimiz mumkin. Bu borada ushbu test sizlarga qo‘l keladi, deb o‘ylaymiz.

1. Hozir do‘konda eng tig‘iz payt — odam juda ko‘p bo‘lishini bilsangiz ham xaridga chiqasizmi?

- a) boshqa paytda vaqtim bo‘lmaydi (3 ball);
- b) zarur bo‘lib qolsa (1 ball);
- d) hech qachon (2 ball).

2. Yoqtirmagan ko‘rsatuvingizni ko‘rishga o‘zingizni majbur qilasizmi?

- a) kamdan kam (1 ball);
- b) o‘zimga bog‘liq bo‘lib qolsa, hech qachon (2 ball);
- d) ko‘rib borishga harakat qilaman (3 ball).

3. Sizga muhabbat izhor qilib yurgan erkakning boshqa ma’shuqasi borligidan xabar topdingiz, deylik. Unga o‘z xatosini tushunib yetib, anglab olishiga imkon berasizmi?

- a) o‘zimni aldashlariga yo‘l qo‘ymayman (2 ball);
- b) u chiroyli erkak bo‘lsa imkon beraman (3 ball);
- d) oldindan jiddiy gaplashib olaman (1 ball).

4. Dugonalarigiz mehmondorchilikka chaqirishgan, lekin borgingiz kelmayapti, nima qilasiz?

a) ishonarli bahona topib bormay qo‘ya qolaman (2 ball);

- b) bu taklif go‘yoki esimdan chiqib qoladi (1 ball);
- d) borishga to‘g‘ri keladi (3 ball).

5. Yoz, quyosh — dengiz — Siz shunaqa mehnat ta’tilini orzu qilasizmi?

- a) men salqinni yoqtiraman (1 ball);
 - b) menga qayerda bo‘lishidan qat’i nazar bekorchilik qilib yotish maroqliroq ko‘rinadi (3 ball);
 - d) kim ham bunaqa ta’tilni orzu qilmaydi deysiz (2 ball).
6. Siz birovga sovg‘a berdingiz-u, evaziga minnatdorchilik bildirmadi, qanday yo‘l tutasiz?
- a) bu yaxshi emas (1 ball);
 - b) bu odamga endi hech narsa sovg‘a qilmayman (2 ball);
 - d) hamma ham yaxshi tarbiya ko‘rmagan (3 ball).
7. Sizni g‘iybat qilgan dugonangiz bilan munosabatlaringizni aniqlab olayapsiz. Unga nima deysiz?
- a) deyarli hech narsa (3 ball);
 - b) meni sendek dugonam yo‘q, — deyman (2 ball);
 - d) meni xafa qilganini, lekin yana kechirganimni aytaman (1 ball).

Test natijalari tahlili

7—11 ball: Kimdandir xafa bo‘lsangiz, gina-kuduratlar bosilgunga qadar undan o‘zingizni chetga tortasiz. U bilan orani butunlay ochiq qilishni esa hech ham xohlamaysiz.

12—16 ball: Hammasi o‘zingizni qay darajada aldangan yoki xafa qilingandek deb hisoblashingizga bog‘liq. Har xil mayda-chuyda gaplarga e’tibor bermay, bag‘rikenglik qilasiz. Lekin jiddiy gap bo‘lsa, Sizni «eritish» g‘oyat mushkul.

17—21 ball: Xatti-harakatlaringizda muntazamlik yo‘qligini o‘zingiz ham yaxshi bilasiz. Tanish-bilishlaringiz shundan foydalanishga intiladilar. Lekin siz bundan tashvishga tushmaysiz. Ammo yodingizda tuting, har gal yon beradigan, «chegara»dan o‘tib ketganlarga ham muloyim munosabatda bo‘ladiganlarni yon-atrofdagilar yengiltak deb bilishlari mumkin.

Ayol kishi har qanday sharoitda ham ayol ekanligini unutmasligi darkor. Buyuk olmon adibi Xansi ta’kidlaganidek, «Menga yaxshi onalarni bering va men olamni baxtiyor qilaman». Shuning uchun oiladagi totuvlik va baxt ayol qo‘lida ekanligini unutmang.

11.3. OILADA ER-XOTIN MUNOSABATLARINI O'RGANISH TESTLARI

1 - t e s t. «Oiladagi muloqotni o'rganish» testi

Quyida oiladagi o'zaro munosabatlar xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan qator savollar berilgan. Ushbu savollarga 4 ta – «a», «b», «d» «e» variant javoblari keltirilgan. Ushbu savollarni diqqat bilan o'qib, o'zingiz uchun to'g'ri bo'lgan javob variantini belgilang.

1. Xotiningiz (eringiz) ikkalangizga ham odatda bir xil kitob, kino, spektakl va boshqalar yoqadi, deb aytish mumkinmi?

- a) ha;
- b) ha desayam bo'ladi;
- d) yo'q desayam bo'ladi;
- e) yo'q.

2. Xotiningiz (eringiz) bilan suhbatlashayotganingizda Sizda tez-tez o'zaro umumiylik, bir-birovni o'zaro to'liq tushunish hissi paydo bo'lib turadimi?

- a) juda kamdan kam;
- b) deyarli kamdan kam;
- d) deyarli tez-tez;
- e) juda tez-tez.

3. Sizlarda ikkalangiz uchun ham bir xil ma'no kasb etadigan va o'zlaringiz bajonidil ishlatadigan sevimli jumlalar, ma'noli so'zlaringiz bormi?

- a) ha;
- b) ha desayam bo'ladi;
- d) yo'q desayam bo'ladi;
- e) yo'q.

4. Siz xotiningizga (eringizga) biron-bir film, kitob, voqea va boshqalarni yoqish-yoqmasligini oldindan aytib bera olasizmi?

- a) ha;
- b) ha desayam bo'ladi;
- d) yo'q desayam bo'ladi;
- e) yo'q.

5. Siz bu to'g'risida aytmasangiz ham, xotiningiz (eringiz) o'zining gapirayotgan gapi yoki qilayotgan ishi sizga yoqish-yoqmasligini sezadi, deb o'ylaysizmi?

- a) qariyb har doim;

- b) deyarli tez-tez;
- d) deyarli kamdan kam;
- e) qariyb hech qachon.

6. Siz xotiningizga (eringizga) boshqa odamlar bilan bo'ladigan munosabatlaringiz haqida gapirib berasizmi?

- a) deyarli hamma narsani gapirib beraman;
- b) deyarli ko'p gapirib beraman;
- d) deyarli kam gapirib beraman;
- e) umuman hech narsa gapirib bermayman.

7. Xotiningiz (eringiz) bilan o'rtalaringizda qarindoshlar bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida qarama-qarshi fikrlar paydo bo'lib turadimi?

- a) ha, deyarli har doim bo'lib turadi;
- b) deyarli tez-tez bo'lib turadi;
- d) deyarli kam bo'lib turadi;
- e) yo'q, deyarli hech qachon bo'lmaydi.

8. Sizni xotiningiz (eringiz) qay darajada yaxshi tushunadi?

- a) juda yaxshi tushunadi;
- b) ancha-muncha tushunadi;
- d) juda kam tushunadi;
- e) umuman tushunmaydi.

9. Biror narsadan xafa bo'lganingiz yoki asabiylashganingizni, buni bildirmaslikka harakat qilayotganingizni xotiningiz (eringiz) sezadi, deyish mumkinmi?

- a) ha, xuddi shunday;
- b) shunday bo'lsa kerak;
- d) bunday bo'lmasa kerak;
- e) yo'q, bunday emas.

10. Xotiningiz (eringiz) o'z muvaffaqiyatsizliklari va xatolari haqida sizga gapirib beradi, deb hisoblaysizmi?

- a) deyarli har doim gapirib beradi;
- b) deyarli tez-tez gapirib beradi;
- d) deyarli kam gapirib beradi;
- e) deyarli hech qachon gapirib bermaydi.

11. Biron-bir so'z yoki predmet sizlarning ikkalangizda ham bir xil narsani eslatadigan hollar bo'lib turadimi?

- a) juda kamdan kam;
- b) deyarli kamdan kam;

d) deyarli tez-tez;

e) juda tez-tez.

12. Siz uchun noxushliklar bo'lganida, kayfiyatingiz yomon bo'lganida xotiningiz (eringiz) bilan bo'lgan suhbatdan keyin o'zingizni ancha yengil his qilasizmi?

a) ha, deyarli har doim;

b) deyarli tez-tez;

d) deyarli kamdan kam;

e) yo'q, qariyb hech qachon.

13. Xotiningiz (eringiz) uchun siz bilan muhokama qilish qiyin va noxush bo'lgan mavzu bor, deb o'ylaysizmi?

a) bunday mavzular juda ko'p;

b) bunday mavzular deyarli ko'p;

d) bunday mavzular deyarli kam;

e) bunday mavzular juda kam.

14. Xotiningiz (eringiz) bilan bo'ladigan suhbatda siz o'zingizni noqulay sezib, kerakli so'zlarni topa olmay qoladigan hollar bo'lib turadimi?

a) juda kamdan kam;

b) deyarli kamdan kam;

d) deyarli tez-tez;

e) juda tez-tez.

15. Xotiningiz (eringiz) bilan «oilaviy an'ana»laringiz bormi?

a) ha;

b) ha desayam bo'ladi;

d) yo'q desayam bo'ladi;

e) yo'q.

16. Xotiningiz (eringiz) kayfiyatingiz qandayligini so'zsiz tushunadimi?

a) deyarli hech qachon;

b) deyarli kamdan kam;

d) deyarli tez-tez;

e) deyarli har doim.

17. Xotiningiz (eringiz) bilan Sizning hayotga bo'lgan munosabatingiz bir xil deyish mumkinmi?

a) ha;

b) ha desayam bo'ladi;

d) yo'q desayam bo'ladi;

e) yo'q.

18. Xotiningizga (eringizga) o‘zingiz uchun muhim bo‘lgan, lekin unga bevosita aloqasi bo‘lmagan yangiliklarni gapirib bermaydigan hollaringiz ham bo‘lib turadimi?

- a) juda kamdan kam;
- b) deyarli kamdan kam;
- d) deyarli tez-tez;
- e) juda tez-tez.

19. Xotiningiz (eringiz) o‘zining jismoniy holati haqida gapirib beradimi?

- a) deyarli hammasini gapirib beradi;
- b) deyarli ko‘p gapirib beradi;
- d) deyarli kam gapirib beradi;
- e) deyarli hech qachon gapirmaydi.

20. Sizga bu haqda o‘zi to‘g‘ridan to‘g‘ri aytmasa ham qilayotgan ishingiz, gapirayotgan gapingiz xotiningizga (eringizga) yoqish-yoqmasligini sezasizmi?

- a) deyarli har doim;
- b) deyarli tez-tez;
- d) deyarli kamdan kam;
- e) deyarli hech qachon.

21. Sizlarning ko‘pchilik do‘stlaringizni baholashdagi fikrlaringiz bir-birlaringizga mos keladi, deyish mumkinmi?

- a) yo‘q;
- b) yo‘q desayam bo‘ladi;
- d) ha desayam bo‘ladi;
- e) ha.

22. Xotiningiz (eringiz) sizga biron-bir film, kitob yoki boshqalar yoqish-yoqmasligini oldindan aytib bera oladi, deb o‘ylaysizmi?

- a) ha, deb o‘ylayman;
- b) ha desayam bo‘ladi;
- d) yo‘q desayam bo‘ladi;
- e) yo‘q deb o‘ylayman.

23. Agar siz xato qilib qo‘ygan bo‘lsangiz, xotiningizga (eringizga) o‘z muvaffaqiyatsizligingiz haqida aytasizmi?

- a) deyarli hech qachon gapirmayman;
- b) deyarli kamdan kam gapirib beraman;
- d) deyarli tez-tez gapirib beraman;
- e) deyarli hamma vaqt gapirib beraman.

24. Boshqa odamlar davrasida bo'lganingizda, atrofda bo'layotgan narsalarga qanday munosabatda ekanligingizni sezish uchun xotiningizning (eringizning) Sizga bir qarab qo'yishi kifoya bo'ladigan hollar bo'lib turadimi?

- a) juda kamdan kam;
- b) deyarli kamdan kam;
- d) deyarli tez-tez;
- e) juda tez-tez.

25. Xotiningiz (eringiz) nechog'li darajada Siz bilan ochiq, deb hisoblaysiz?

- a) butunlay ochiq;
- b) ochiq bo'lsa kerak;
- d) ochiq bo'lmasa kerak;
- e) umuman ochiq emas.

26. Sizni xotiningiz (eringiz) bilan oson muomalada bo'la oladi, deyish mumkinmi?

- a) ha;
- b) ha desayam bo'ladi;
- d) yo'q desayam bo'ladi;
- e) yo'q.

27. Bir-biringiz bilan munosabatda tez-tez hazillashib (jinililik qilib) turasizlarmi?

- a) juda kamdan kam;
- b) deyarli kamdan kam;
- d) deyarli tez-tez;
- e) juda tez-tez.

28. Xotiningizga (eringizga) o'zingiz uchun juda muhim narsa to'g'risida gapirib berib, keyin ortiqcha gapirib qo'yganingiz uchun pushaymon bo'lgan paytlaringiz bo'lib turadimi?

- a) yo'q, deyarli hech qachon;
- b) deyarli kamdan kam;
- d) deyarli tez-tez;
- e) ha, deyarli har doim.

29. Agar xotiningizning (eringizning) kayfiyati yomon bo'lsa, Siz bilan gaplashgandan keyin ancha yengil tortadi, deb o'ylaysizmi?

- a) yo'q, deyarli hech qachon;
- b) deyarli kamdan kam;
- d) deyarli tez-tez;
- e) ha, deyarli hamma vaqt.

30. Siz xotiningiz (eringiz) bilan qay darajada ochiqsiz?

- a) butunlay ochiq;
- b) ochiq bo'lsam kerak;
- d) ochiq bo'lmasam kerak;
- e) umuman ochiq emas.

31. Xotiningiz (eringiz) biror narsadan xafa bo'lganini yoki asabiylashganini sizdan yashirishga harakat qilsa ham har doim Siz seza olasizmi?

- a) ha, bu shunday;
- b) shunaqaroq;
- d) bunday bo'lmasa kerak;
- e) yo'q, bu bunday emas.

32. Siz uchun muhim bo'lgan biron-bir masala bo'yicha qarashlaringiz xotiningizning (eringizning) qarashlariga mos kelmay qoladigan hollar bo'ladimi?

- a) juda kamdan kam;
- b) deyarli kamdan kam;
- d) deyarli tez-tez;
- e) juda tez-tez.

33. Ba'zan xotiningiz (eringiz) o'zi uchun juda muhim bo'lgan, ammo sizga to'g'ridan to'g'ri aloqasi bo'lmagan yangiliklar bilan o'rtoqlashmaydigan hollar bo'lib turadimi?

- a) juda tez-tez;
- b) deyarli tez-tez;
- d) deyarli kamdan kam;
- e) juda kamdan kam.

34. Xotiningizning (eringizning) kayfiyati qanaqaligini Siz so'zsiz tushuna olasizmi?

- a) deyarli har doim;
- b) deyarli tez-tez;
- d) deyarli kamdan kam;
- e) deyarli hech qachon.

35. Sizda xotiningiz (eringiz) bilan «Bizlik hissi» tez-tez paydo bo'lib turadimi?

- a) juda tez-tez;
- b) deyarli tez-tez;
- d) deyarli kamdan kam;
- e) juda kamdan kam.

36. Xotiningizni (eringizni) Siz nechog'li darajada yaxshi tushunasiz?